
The formation and development of the theory of individual style in world linguistics

Xaydarov Dovranjon Turgunovich
n.scienceofworld@gmail.com
Independent Researcher,
Fergana State University

Annotation *This article examines the theoretical foundations of the concept of individual style and its role in stylistics, text linguistics, and linguopoetics. The essence and content of the category of style are analyzed through the views of prominent linguists, and the stages of the formation and development of the theory of individual style are discussed. The study summarizes scholarly approaches from ancient thinkers to contemporary linguistic researchers. Particular attention is paid to the relationship between individual style and the author's linguistic personality, aesthetic thinking, communicative strategy, and national-cultural worldview.*

Keywords *Individual style, idiostyle, stylistics, text linguistics, linguopoetics, linguistic personality, communicative stylistics, linguoculturology, literary text, authorial style*

Dunyo tilshunosligida individual uslub nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi

Xaydarov Dovranjon Turg'unovich,
n.scienceofworld@gmail.com
Mustaqil tadqiqotchi,
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya *Mazkur maqolada individual uslub tushunchasining nazariy asoslari, uning stilistika, matn lingvistikasi va lingvopoetika doirasidagi o'рни yoritiladi. Uslub kategoriyasining mazmun-mohiyati turli tilshunos olimlarning qarashlari asosida tahlil qilinadi hamda individual uslub nazariyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari ko'rib chiqiladi. Antik davr mutafakkirlaridan boshlab zamonaviy tilshunoslik vakillarigacha bo'lgan ilmiy qarashlar umumlashtiriladi. Shuningdek, individual uslubning muallif lisoniy shaxsi, estetik tafakkuri, kommunikativ strategiyasi va milliy-madaniy dunyoqarashi bilan bog'liqligi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar *Individual uslub, idiostil, stilistika, matn lingvistikasi, lingvopoetika, lisoniy shaxs, kommunikativ stilistika, lingvokulturologiya, badiiy matn, muallif uslubi*

Формирование и развитие теории индивидуального стиля в мировом языкознании

Хайдаров Довранжон Тургунович
n.scienceofworld@gmail.com
Независимый исследователь,
Ферганский государственный университет

Аннотация *В данной статье рассматриваются теоретические основы понятия индивидуального стиля и его место в стиллистике, лингвистике текста и лингвопoeтике. Анализируется содержание категории стиля на основе взглядов известных лингвистов, а также освещаются этапы формирования и развития теории индивидуального стиля. Обобщаются научные концепции от античных мыслителей до современных исследователей языка.*

Особое внимание уделяется связи индивидуального стиля с языковой личностью автора, его эстетическим мышлением, коммуникативной стратегией и национально-культурным мировоззрением.

Ключевые слова

Индивидуальный стиль, идиостиль, стилистика, лингвистика текста, лингвопоэтика, языковая личность, коммуникативная стилистика, лингвокультурология, художественный текст, авторский стиль

Kirish

Biror tilning umummilliy adabiy til darajasiga ko'tarilishi va rivojlanishi, xalqning milliy ongi, tafakkuri, dunyoqarashi hamda madaniyatining shakllanishi va taraqqiy etishida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Chunki adabiy tilning rivoji uchun badiiy adabiyot tili eng boy manba bo'lib xizmat qiladi. Adabiy tilning serqirra imkoniyatlarini yanada kengroq ochish, so'zning yangidan-yangi ma'no qirralarini kashf etish, so'z boyligidan unumli va samarali foydalanishda so'z san'atkorlarining alohida xizmatlarini ta'kidlash lozim. Shu nuqtayi nazardan mahoratli adib va shoirlarning asarlari tilini hamda ijodiy uslubining o'ziga xos jihatlari lingvistik aspektida o'rganish har doim muhim ilmiy ahamiyat kasb etib kelgan. Bunday tadqiqotlarning markazida esa ijodkorning individual uslubi turadi. Shuning uchun ham badiiy matnni lingvistik tahlil qilishda individual uslub tushunchasi asosiy nazariy mezon sifatida e'tirof etiladi. "O'z-o'zidan ravshanki, badiiy adabiyotning til xususiyatlarini o'rganishda individual uslub tushunchasi o'ziga xos, tarixiy shartli, badiiy ifoda vosita va shakllarining murakkab, lekin struktur jihatdan o'zaro birikkan va ichki bog'langan tizimi sifatida boshlang'ich va asosiy mezon hisoblanadi" (Arastu, 2011).

Adabiyotlar tahlili va Metodologiya

Tilshunoslikda "uslub" terminining mazmun-mohiyatini yoritishda Dmitriy Nikolayevich Ushakov(1940) tahriri ostida 1935-1940-yillarda nashr etilgan "Rus tilining izohli lug'ati" alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Ushbu lug'atda "uslub" tushunchasi to'rtta asosiy semantik ma'noda izohlangan.

1. Qaysidir musavvir, davr yoki xalqning badiiy asarlariga xos badiiy vositalar majmui. Arxitektura uslublari. Gotika uslubi. Moorish uslubi. XIX asrning musiqiy uslublari. Arxitekturada rus uslubi. Zamonaviy uslub.
2. Muayyan adabiy asar, janr, muallif yoki adabiy oqimga xos bo'lgan til vositalari va g'oyalar tizimi. Gogol uslubi. Romantik uslub.
3. *Ko'chma* xulq-atvorning xarakterli uslubi, faoliyat usuli, qandaydir ish usullari to'plami. *Eshkak eshish uslubi. Shaxmat uslubi.*
4. Hisoblash usuli. Qadimgi uslub (*Yulian taqvimi*). Yangi uslub (*Grigorian taqvimi*) (Ushakov, 1940).

Mazkur ta'riflardan ko'rinadiki, "uslub" tushunchasi juda keng qamrovli bo'lib, u san'at, adabiyot, tilshunoslik va inson faoliyatining turli sohalarida qo'llaniladi. Biroq badiiy matn lingvistikasi nuqtayi nazaridan uslubning ikkinchi ma'nosi, ya'ni muallifning individual ijodiy xususiyatlarini ifodalovchi uslub alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "uslub" termini o'zining leksik va semantik xususiyatlari nuqtayi nazaridan quyidagicha talqin etiladi:

Uslub [arabcha - tartib, tartib-usul; usul, yo'sin; shakl]

1. Til unsurlarining ma'lum vazifa bajarishiga bog'liq holda birlashdigan, til birliklarining o'ziga xos tanlanishi,

- birikishi va sh.k. bilan xarakterlanadigan tizimlar. *Til uslublari. Funksional uslublar.*
2. Til vositalaridan foydalanishning ma'lum bir yozuvchi, asar, janr uchun xarakterli bo'lgan usullari majmui. *A. Qahhor uslub. Felyetonlar uslub.*
 3. Til vositalarining ekspressiv-uslubiy belgi asosida tanlanishi (saylanishi); nutqning so'z qo'llash va sintaktik meyorlarga mos holda tuzilishi. *Kitobiy uslub. Rasmiy uslub. Ilmiy uslub.*
 4. Ishlash, boshqarishdagi o'ziga xos yo'l, usul. *Rahbarlik uslub. Suzish uslub* (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006).

Demak, ushbu izohlardan ko'rinib turibdiki, uslub (stil) tushunchasi juda keng qamrovli bo'lib, keng va tor ma'nolarda qo'llanadi. Xususan, ijodkor uslub haqida gap ketganda, *muayyan ijodkorning badiiy asar yaratishda qo'llaydigan o'ziga xos, boshqalarga o'xshamaydigan lisoniy usul va vositalarining murakkab tizimini* anglatadi.

Individual uslubning mohiyatini yoritishda Viktor Vinogradovning (1971) qarashlari alohida ilmiy ahamiyatga ega. Olimning ta'kidlashicha, "yozuvchi uslub... aynan shu ijodkorning ijodiy tizimiga xos individual-tasviriy belgilar va narsa-obrazlarning o'zaro bog'liqlik jihatlarini shakllantiradi va takrorlaydi. Semiotika poetik semiotikaga aylanadi". Mazkur fikrdan anglashiladiki, yozuvchi uslub faqat til birliklarining yig'indisi emas, balki muallifning badiiy tafakkuri, estetik ideali va voqelikni idrok etish usulini ifodalovchi yaxlit tizimdir. Ushbu tizimda leksik, grammatik va uslubiy vositalar o'zaro uzviy bog'lanib, muallifning individual badiiy olamini yaratishga xizmat qiladi. Vinogradovning ushbu qarashi individual uslubni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki badiiy matnning ichki semantik va poetik tuzilishini belgilovchi murakkab semiotik tizim sifatida baholash imkonini beradi.

A. Peshkovskiy (1930) stilistik tadqiqotlar xususida fikr yuritar ekan, ijodkor uslubining shakllanishi va uni tadqiq qilish masalasida stilistikaning nazariy kursi haqida emas, faqat

uslubiy mahoratni rivojlantirish borasida fmkur yuritish kerakligiga urg'u beradi. "Oddiy adabiy savodxonlik – bu hali pishib yetilgan uslubiy hashamat emas. Badiiy nutq mahorati haqida gapirganda, muayyan ijodkorga xos sintaktik ifoda usuli va so'z boyligining stilistik tomonini umumadabiy til imkoniyatlaridan farqlab ajratish juda qiyin. Uslubiy mahorat, asosan, boshqalar ijodini uslubiy jihatdan kuzatish va eksperiment orqali rivojlanadi. Bola kattalar nutqini tushunishi, uqishi orqali gapirishni o'rganganidek, ijodkor ham o'z xususiy uslubiga faqat o'zgaralar uslubini tushunish, uqish orqali ega bo'ladi. Shuning uchun men uslubni o'rganishda "matnning chuqurlashtirilgan uslubiy tahlili"ni asosiy o'ringa qo'yaman".

Zamonaviy tilshunoslikda individual uslub faqat uslubiy xususiyatlarning yig'indisi sifatida emas, balki muallifning lisoniy shaxsini namoyon etuvchi murakkab kommunikativ va kognitiv tizim sifatida talqin etilmoqda. Shu sababli bugungi kunda individual uslub masalasi lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, diskurs tahlili, pragmalingsvistika hamda korpus lingvistikasi kabi yo'nalishlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganilmoqda.

Natija va Muhokama

Individual uslub nazariyasining ilmiy asoslari XIX-XX asrlarda shakllangan bo'lsa-da, uning dastlabki nazariy ildizlari qadimgi Yunoniston va Rim notiqlik maktablariga borib taqaladi. Antik davr mutafakkirlari nutqning mazmuni, shakli, ta'sirchanligi hamda estetik xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida uslub tushunchasiga ham alohida e'tibor qaratganlar. Garchi ular individual uslubni bugungi lingvistikadagi mazmunida talqin qilmagan bo'lsalar-da, keyinchalik stilistika va individual uslub nazariyasining rivojlanishiga asos bo'lgan muhim nazariy qarashlarni ilgari surganlar.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotel (2011) o'zining "Poetika" asarida badiiy nutqning tabiati, so'z tanlash, metafora, uslubiy vositalar hamda nutqning estetik ta'sir kuchiga oid qimmatli ilmiy fikrlarni bayon etadi. Olimning

ta'kidlashicha, nutqning badiiyligi, avvalo, til birliklarining o'rinli tanlanishi va ularning maqsadga muvofiq qo'llanishi bilan belgilanadi. Aristotel (2011) metaforani badiiy tafakkurning eng muhim ko'rinishlaridan biri deb hisoblab, uni ijodkor iste'dodining yorqin ifodasi sifatida baholaydi. Mazkur qarashlar keyinchalik individual uslubni til birliklarini tanlash tamoyillari orqali izohlovchi nazariyaning shakllanishiga muhim ta'sir ko'rsatgan.

Qadimgi Rim notiqlik maktabining yirik namoyandasi Sitseron (1972) o'zining "Notiq haqida" asarida uslubni notiqning shaxsiy mahorati bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin etadi. Uning fikricha, har qanday nutq tinglovchiga samarali ta'sir ko'rsatishi uchun u mazmunan mukammal bo'lishi bilan bir qatorda, muallifning o'ziga xos bayon usuli orqali ham ajralib turishi lozim. Sitseron notiqning bilim darajasi, dunyoqarashi va estetik didi uning nutqida namoyon bo'lishini alohida ta'kidlaydi. Shu bois u uslubni faqat til vositalarining yig'indisi sifatida emas, balki shaxsning nutqiy individualligini ifodalovchi muhim omil sifatida baholaydi.

Antik davrning yana bir mashhur olimi Kvintilian (2001) o'zining "Notiq tarbiyasi haqida" nomli asarida mukammal notiq shaxsini shakllantirish masalasini atroflicha yoritadi. Olim uslubning shakllanishi notiqning shaxsiy fazilatlarini, bilim saviyasi, nutq madaniyati va axloqiy kamoloti bilan chambarchas bog'liq ekanligini qayd etadi. Kvintilianning (2001) fikricha, chinakam notiq til me'yorlarini puxta egallashi bilan birga, ulardan vaziyatga mos, ta'sirchan va o'ziga xos tarzda foydalana olishi zarur. Mazkur qarashlar keyinchalik individual uslub nazariyasida muallifning lisoniy shaxsi konsepsiyasining shakllanishiga muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

XIX asr tilshunosligida individual uslub nazariyasining shakllanishi uchun zarur bo'lgan nazariy asoslar, avvalo, nemis klassik tilshunosligi vakili Vilgelm fon Gumboldt (2000) hamda shveysariyalik tilshunos Ferdinand de

Sossyurning ilmiy qarashlari negizida yuzaga keldi.

Vilgelm fon Gumboldtning mazkur g'oyalari XX asr boshlarida Ferdinand de Sossyur (2004) tomonidan yangi lingvistik metodologiya asosida rivojlantirildi. Sossyur tilni ijtimoiy hodisa va nutqni individual hodisa sifatida farqlab, individual uslubni aynan nutq faoliyatida namoyon bo'ladigan hodisa sifatida tushunish uchun nazariy asos yaratdi. Shu tariqa Gumboldt tomonidan ilgari surilgan tilning ijodiy tabiati haqidagi falsafiy qarashlar Sossyurning struktural tilshunoslik konsepsiyasi bilan boyitilib, individual uslubni til tizimi, nutq va muallif shaxsi o'rtasidagi murakkab munosabatlar doirasida o'rganishga metodologik zamin yaratdi. Mazkur nazariy qarashlar keyinchalik Charl Balli (1961), Leo Shpitser (1948) hamda Viktor Vinogradov (1971) tomonidan ishlab chiqilgan individual uslub konsepsiyalarining shakllanishida muhim ilmiy manba vazifasini o'tadi.

Individual uslub nazariyasining ilmiy asoslarini shakllantirish va stilistikani mustaqil tilshunoslik sohasi sifatida rivojlantirishda shveysariyalik tilshunos Charl Ballining ilmiy qarashlari alohida o'rin tutadi.

Charl Ballining (1961) ekspressiv stilistika haqidagi ta'limoti XX asrning ikkinchi yarmida individual uslubni lingvopoetik va matn lingvistikasi nuqtayi nazaridan o'rganishga keng yo'l ochdi. Xususan, Leo Shpitser (1948), Viktor Vinogradov (1971), Roman Yakobson (1987) kabi olimlar Ballining tilning uslubiy va ekspressiv imkoniyatlariga oid qarashlarini rivojlantirib, yozuvchi idiositilini muallifning lisoniy shaxsi, estetik konsepsiyasi va badiiy tafakkurining ifodasi sifatida talqin qildilar.

Xususan, XX asrning birinchi yarmiga kelib individual uslub masalasi stilistika va adabiyotshunoslikning alohida ilmiy yo'nalishlaridan biriga aylana boshladi. Mazkur yo'nalishning shakllanishida avstriyalik filolog va stilist Leo Shpitserning ilmiy qarashlari alohida o'rin tutadi. Gumboldt tilning falsafiy mohiyatini, Sossyur til tizimini, Balli esa tilning ekspressiv imkoniyatlarini tadqiq etgan bo'lsa,

Shpitser ushbu nazariyalarni badiiy matn tahliliga tatbiq etib, yozuvchi individual uslubini mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganishga asos soldi. Leo Shpitserning (1948) fikricha, har qanday badiiy asar, avvalo, muallif shaxsining lisoniy va estetik individualligini aks ettiruvchi yaxlit tizimdir. Shu sababli yozuvchi uslubini alohida til birliklari yoki uslubiy vositalar orqali emas, balki matnning barcha lisoniy qatlamlari – leksik, grammatik, sintaktik hamda poetik vositalarning o'zaro uyg'unligi asosida tahlil qilish zarur. Olim individual uslubni muallifning dunyoqarashi, estetik ideali, ruhiy olami va badiiy tafakkurining til orqali namoyon bo'lish shakli sifatida talqin qiladi.

Shpitser tomonidan ishlab chiqilgan filologik doira metodi individual uslubni o'rganishda yangi metodologik bosqichni boshlab berdi. Mazkur metodga ko'ra, tadqiqotchi badiiy matndagi e'tiborni tortadigan biror lisoniy hodisadan boshlaydi, so'ng ushbu hodisaning matnning umumiy mazmuni, kompozitsiyasi va muallifning estetik konsepsiyasi bilan bog'liqligini izchil tahlil qiladi. Natijada matnning alohida til birliklari emas, balki ularning o'zaro aloqadorligi va yaxlit tizimi yozuvchi individual uslubining asosiy belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Leo Shpitser individual uslubni faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki til, tafakkur va badiiy ijodning uzviy birligini ifodalovchi murakkab filologik kategoriya sifatida baholaydi. Aynan shu yondashuv keyinchalik Viktor Vinogradov (1971), Roman Jakobson (1987) hamda Yuriy Lotman (1988) tomonidan yanada rivojlantirilib, individual uslub nazariyasining shakllanishiga mustahkam ilmiy zamin yaratdi. Shu tariqa XX asrning birinchi yarmidan boshlab individual uslub tushunchasi stilistika va lingvopoetikaning mustaqil tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etila boshladi hamda badiiy matnni lingvistik tahlil qilishning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida individual uslub nazariyasi lingvopoetika, matn lingvistikasi, kommunikativ

stilistika hamda lisoniy shaxs nazariyasi bilan uzviy bog'liq holda yangi bosqichga ko'tarildi. Bu davrda individual uslub faqat yozuvchining til vositalaridan foydalanish usuli sifatida emas, balki uning lisoniy shaxsi, konseptual dunyoqarashi, kommunikativ strategiyasi va madaniy tafakkurining ifodasi sifatida talqin etila boshlandi. Mazkur yo'nalishning rivojlanishida Y.N. Karaulov, I.R. Galperin, N.S. Bolotnova, V.A. Maslova hamda M.N. Kojina kabi olimlarning ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Y.N. Karaulov (1987) tomonidan ishlab chiqilgan lisoniy shaxs nazariyasi individual uslubni muallif shaxsining nutqiy faoliyati bilan uzviy bog'liq holda o'rganish imkonini berdi. Olimning fikricha, har bir ijodkorning individual uslubi uning bilim darajasi, dunyoqarashi, milliy-madaniy tajribasi va kommunikativ kompetensiyasining badiiy matndagi ifodasidir. I.R. Galperin (1981) esa matn lingvistikasi doirasida badiiy matnning semantik va uslubiy yaxlitligini asoslab, individual uslubni matnning barcha sathlarida namoyon bo'ladigan murakkab tizim sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, yozuvchi idiositili matnning leksik, grammatik, kompozitsion va pragmatik qatlamlarining o'zaro uyg'unlashuvi orqali yuzaga keladi.

Individual uslub nazariyasining zamonaviy rivojlanish bosqichi kommunikativ stilistika, lingvokulturologiya, matn lingvistikasi hamda funksional stilistika yo'nalishlarining taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur davrda individual uslub faqat muallifning til birliklarini tanlash va qo'llash usuli sifatida emas, balki uning lisoniy shaxsi, konseptual tafakkuri, kommunikativ strategiyasi, milliy-madaniy qarashlari va badiiy-estetik dunyo modelining matndagi yaxlit ifodasi sifatida talqin etila boshlandi. Natijada idiositilni o'rganishda matnning semantik tuzilishi, pragmatik xususiyatlari, muallif konsepsiyasi, adresat omili hamda madaniy kontekstni kompleks tahlil qilish zarurligi e'tirof etildi. Bu borada N.S. Bolotnovaning (2008) kommunikativ stilistika sohasidagi ilmiy qarashlari alohida ahamiyat

kasb etadi. Olim idiosstilni muallifning individual kommunikativ faoliyatini ifodalovchi murakkab tizim sifatida baholab, uning shakllanishida matnning semantik tuzilishi, kompozitsion yaxlitligi, pragmatik yo'nalishi va kommunikativ strategiyasi hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlaydi.

Individual uslubning lingvomadaniy mohiyatini yoritishda V.A. Maslovaning (2010) tadqiqotlari ham muhim o'rin egallaydi. Olim individual uslubni lingvokulturologik nuqtayi nazardan talqin etib, har bir yozuvchining idiosstili milliy madaniyat, tarixiy xotira, qadriyatlar tizimi va konseptual dunyo manzarasining individual tafakkur bilan uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, badiiy matnda qo'llanilgan til birliklari nafaqat estetik vazifani

bajaradi, balki muallif mansub bo'lgan madaniy muhitning lisoniy ifodasini ham o'zida mujassamlashtiradi. Shu bois individual uslubni tadqiq etishda til birliklarini milliy-madaniy kontekst, konseptlar tizimi va lingvomadaniy birliklar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish zarur.

Xulosa

Umuman olganda, yozuvchi individual uslubi umumxalq adabiy tilining uslubiy imkoniyatlarini ijodiy qayta ishlash va ulardan muallif estetik niyatiga muvofiq foydalanish natijasida shakllanadi. Shuning uchun individual uslubni o'rganishda tilning funksional imkoniyatlari bilan muallifning individual uslubiy tanlovi o'rtasidagi dialektik munosabatni aniqlash muhim ilmiy mezon hisoblanadi.

References:

1. Arastu. (2011). *Poetika. Axloqi kabir. Ritorika* (M. Mahmudov & U. To'ychiyev, Trans.). Yangi asr avlodi.
2. Bally, C. (1961). *Frantsuzskaya stilistika* [French Stylistics]. Izdatelstvo inostrannoy literatury.
3. Bolotnova, N. S. (2008). *Kommunikativnaya stilistika teksta: Slovar-tezaurus* [Communicative Stylistics of the Text: Dictionary-Thesaurus]. Tomsk State Pedagogical University Press.
4. Cicero, M. T. (1972). *De oratore* [On the Orator] (H. M. Hubbell, Trans.). Harvard University Press. (Original work published ca. 55 BCE)
5. Galperin, I. R. (1981). *Tekst kak ob'yekt lingvisticheskogo issledovaniya* [Text as an Object of Linguistic Research]. Nauka.
6. Humboldt, W. von. (2000). *Izbrannye trudy po yazykoznaniyu* [Selected Works on Linguistics] (G. V. Ramishvili, Ed.). Progress.
7. Karaulov, Y. N. (1987). *Russkiy yazyk i yazykovaya lichnost* [Russian Language and Linguistic Personality]. Nauka.
8. Kojina, M. N. (2008). *Stilistika russkogo yazyka* [Stylistics of the Russian Language] (4th ed.). Flinta; Nauka.
9. Maslova, V. A. (2010). *Lingvokulturologiya* (4th ed.). Akademiya.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2006–2008). *O'zbek tilining izohli lug'ati*. Vols. 1–5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.
11. Quintilian. (2001). *Institutio oratoria* [The Orator's Education] (D. A. Russell, Trans.). Harvard University Press.
12. Saussure, F. de. (2004). *Kurs obshchey lingvistiki* [Course in General Linguistics] (A. M. Sukhotin, Trans.; R. I. Shor, Ed.). Editorial URSS.

13. Spitzer, L. (1948). *Linguistics and Literary History: Essays in Stylistics*. Princeton University Press.
14. Ushakov, D. N. (Ed.). (1935–1940). *Tolkovyy slovar russkogo yazyka* [Explanatory Dictionary of the Russian Language]. Vols. 1–4) Gosudarstvennoye izdatelstvo inostrannykh i natsionalnykh slovarey.
15. Vinogradov, V. V. (1971). *O teorii khudozhestvennoy rechi* [On the Theory of Artistic Speech]. Nauka.
16. Jakobson, R. (1987). *Raboty po poetike* [Works on Poetics]. Progress.